

TURK ATAMASI VA DAVLATCHILIGIGA TARIXIY NAZAR

Xurramov Diyorbek Baxromovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ilk o‘rta asrlarning mashhur davlati turk xoqonligi haqida bo‘lib, maqolada turk atamasining va xoqonligining kelib chiqishi va Osiyo hududiga tarqalishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Turkash, Ashin, Mo‘g‘iliston, Jo‘janlar, Vey imperiyasi, Vendi, Turfon, Asyanshad.

“Agar bir kishi butun qo‘shinga qarshi chiqsa, bilinglarki, u turk bo‘ladi”.

Xitoy qo‘mondoni Xo Ping.

KIRISH

Kishilik tarixining o‘rganilishi bir maromda bo‘lmagan. Yevropa va Yaqin Sharq ijtimoiy bosqichlari almashinishi, voqea-hodisalar silsilasi XIX asr oxirlaridayoq ommabop asarlar yordamida ham yoritilgan. Xitoy va Hidiston tarixi XX asr boshida bayon qilingan bo‘lishiga qaramay, Yevroosiyoning poyonsiz cho‘l mintaqalari o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda edi. Bu ayniqsa ajoyib xalq qadimgi turklarning ochilmagan sir sinoatlari yotar edi. Turk atamasining vujudga kelishi va rivojlanib, davlatchilk boshqaruvining shakllanishi kishilik tarixida keskin bir burulish yasadi. Turk davlati g‘arb va sharq madaniyati o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qilganligini tarixiy manbalarda o‘z tasdig‘ini topgan sanaladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo va Kavkaz kabi geosiyosiy hududlarda asosan turkiy millatga mansub elatlar istiqomat qiladi. Bu millatlar o‘rtasida yaqin qon-qarindoshlik aloqalarini aks ettiruvchi ilmiy tarixiy manbalar o‘rganish tarixchi olimlarning asosiy vazifasi sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi bandida: Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 –

2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, (28.01.2022 yildagi PF-60-son) yettinchi bandi ("Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish") da keltirilgan farmonlar maqolamizning dolzarbligiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turklar haqida manbalarga to'xtalsak, Xitoy manbalari, mashhur Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" (1669) asari "O'g'iznoma" dostoni, O'rxun-Enasoy yozuvlari, Kultegin va Bilga xoqon bitiklari, VI asr oxirida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari qimmatli manbalar hisoblanadi. Shuningdek bu to'g'ridagi ma'lumotlar arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (IX-X asr), Abu Rayxon Beruniy, Narshaxiy va boshqalar asarlarida uchraydi. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas" kabi umumturkiy xalq dostonlari, o'rta asrlardagi Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib kabi turkiy mualliflar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya'ni Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Xalqlarimizning Davlatchilik tarixida turk xoqonligi muhim ahamiyatga ega.

Turkiylarning jahondagi qadimgi va yirik etnoslaridan birining nomi hisoblanadigan "turk" so'zi baquvvat, barkamol, odillik, kuchlilik kabi ma'nolarni beradi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. Turklar ayrim manbalarda ashiniylar deb ham nomlangan. Ashin urug'i boshchiligida turk qabilalari ittifoq tuzgan. Osiyodagi kuchli imperyalardan biri bo'lgan turk xoqonligi hududiga eng kengaygan davrda unga Xitoyning shimoli (hozirgi Manjuriya), Mo'g'iliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta osiyo, Qozog'iston va Shimoliy Kavkaz hududlari kirgan. Uning ravnaqi topgan davrida maydoni taxminan (10 mln km²) ni tashkil etgan.

6-asrda Turklarda bo'lgan Ashina avlodi kuchayib Turk xoqonligini barpo etgan. Xitoy manbalariga ko'ra, 9-asrda tilga olinadigan Turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan. Shulardan 22 tasi uyg'ur (ittifoqchilar) deb nomlangan. Uyg'ur xoqonligi tugatilganidan so'ng bularning katta bir qismi Turkiston hududida joylashgan. Turkiya olimlari asarlarida Turk qabilasi ko'kturk deb ham ataladi. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'kturk kso'zi tangriga, ya'ni osmonga ishongan Turklar, balandlik, ko'k bo'ri totemi bo'lgan Turklar kabi ma'nolarni anglatgan. Markaziy Osiyoda Turk toponim, etnonim, gidronim sifatida ko'plab uchraydi.¹

¹ Quyoshbek o'g, U. A. A. (2022). TURKIYLARNING KELIB CHIQISHI VA TURK ATAMASIGA QISQACHA IZOH. Conferencea, 171-173.

Qadimgi yozma manbalarda shunday ma'lumotlar keltirib o'tiladiki, G'arbiy dengiz qirg'og'ida yashagan turkiylarning ota bobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat 10 yoshli bola yashirilib tirik qoldi o'sha yerda yashaydigan urg'ochi bo'ri unga xotin bo'ldi. Ochlikdan qutqarish dushmanlardan yashirinish uchun bo'ri o'sha bolani olib Turfon tog'lariga qochib ketdi. U yerda urg'ochi bo'ri 10 ta bola ko'rdi. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug' kelib chiqdi. O'g'illardan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo'ldi.

Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq va aqlliyoq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilani dohiysi bo'lib qoldi. Urug' soni bir necha 100 kishiga yetdi. Ashinning merosxo'rlaridan biri qabila dohiysi Asyanshad bo'ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo'ri avlodlari bu yerda jo'jonlarning fuqorosiga aylanib temir qazib berar edi. Oltoyda ular turk nomini oldilar. Afsonalarga ko'ra turk so'zi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidan kelib chiqqan.¹

Ammo tarixchilarda o'sha xalqning davlatchilik sanasini ma'lum bir tarixiy voqeadan boshlash odati bor. Masalan rimliklar tarixi boshi Rim shahrining asoslanishidan, arablar tarixi esa paygambarimiz Muhammad (s.a.v) ning Makkadan Madinaga hijrat qilgan yillari hisoblanadi. Rus yilnomachilari 862-yilni tanlab olib, (Ryurik, Sineus va Truvor slavyanlarning chaqirig'iga javoban Novgorodga keladi va rus yerlarida hukmronlik qila boshlaydilar) rus tarixini shundan boshlashiga ko'nikdilar. Turklar uchun ana shunday sana milodiy 545-yildir. Vey imperyasining g'arbiy hududi Sharqiy hududiga hujum qiladi. Jujanlar (Manqurtlar) G'arbiy Vey imperyasi bilan Sharqiy Vey hududini siqib qo'yadilar. Buning oqibatida Sharqiy Vey imperyasi o'ziga tarafdorlar izlay boshlaydilar va shunday tarafdorni topadilar, ana shunday tarafdorlardan biri Turk xoqonligi edi. 545-yilda jujanlar turklarga elchi yuboradi. Turklar bu elchilarning kelishini eshitib xursand bo'ladilar. Ular shunday o'ylaydilar, ularda bizga qudratli davlatdan elchi keldi, endi biz ham kuchayamiz degan fikr paydo bo'ladi. Bumin (542-553) uchun jujanlardan qutilishga bahona kerak edi. Bumin Anauxaning qiziga sovchi jo'natadi. Bumin bu ishi bilan go'yoki o'zini Anauxaga tenglashtirdi. Bu esa Anauxaga ma'qul kelmadi. Bu Anauxaga haqoratday tuyuldi. Anauxa g'azablanib Buminga shunday javob berdi: "Ey mening temir erituvchim, sen menga bunday taklif kiritishga qanday jur'at etding". Bumin o'z maqsadiga erishdi. Jujanlar bilan aloqasini uzdi.² Vey Imperyasining hukmdori Vendi bilan shartnomani yangiladi. Shu tariqa jujanlar tor-mor keltirildi. Turk xoqonligi ilk o'rta asrlar tarixida eng qudratli davlat sifatida tarix saxnasiga kirib keldi.

¹ Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1993. С. 152-153.

² Turk xoqonligi" Nasimxon Rahmon, Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

NATIJALAR

552-yil Bumin jujanlarga (Manqurtlarga) qarshi urush e'lon qildi. Jang Buminning g'alabasi bilan tugadi. Bu bilan turklar o'z mavqelariga erishib oldilar va O'rta Osiyo, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti qipchoqqa ikki asr hukumronlik qildi. Turk xoqonlari nihoyatda katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlarni sakkizta xoqonlik asosida boshqardilar. Uning asosiy qismi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqargan. Hukumdorning hokimiyati urug'-aymog' udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruviga asoslangan.¹

Mamlakat ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon aholiga bo'lingan.²

Jamiyat hayotini idora etishida ma'lum bir huquqiy usullarning mavjudligi shu jamiyatdagi madaniy va ma'naviy ahvol, ijtimoiy adolat darajasidan dalolat beradi. Qadimdan to XII asrga qadar Markaziy Osiyoda 3 ta yetakchi etnos muhim ro'l o'ynadi. Bular Xitoy, Turklar va Sug'dlardir. Ushbu 3 ta etnos o'rtasidagi keng siyosiy madaniy munosabatlari orasida turk va sug'd etnoslari munosabatlari keyingi asrlarda etnik shakllanishlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.³

MUHOKAMA

Turk davlatlarining tashkil topishi, rivoji va tanazzuli xuddi jonli mavjudotlarga o'xshaydi. Shaxs jismoniy va ma'naviy jihatdan o'sganidek, davlatning ham taraqqiyoti, tannazuli bo'ladi. Ma'naviy yuksak shaxsning hayoti jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti tasodifiy emas zaruriyatdir. Xar bir turk davlatining tashkil topishi ana shu zaruriyat bilan belgilanadi. Agar taraqqiyot zaruriyatga aylanmagand edi turk xoqonligining paydo bo'lishi va yashashi mumkin emas edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turk xoqonligi yurtimiz tarixida o'z o'rniga egadir. Ammo bu davr tarixi manbalarning keyingi yillarda ko'payib manbashunosligi kengayib bormoqda. Manbalarni chuqur o'rganish va tahlillarni talab qiladi. Turk xoqonligining davlatchilik masalalarini o'rganish va tarixiy ma'lumot sifatida kirgizish dolzarb sanaladi.

¹ Shoniyozov K., O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, T., 2001.

² O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Baxodir Eshov. "Yangi asr avlodi", Toshkent. 2012.

³ Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari. Toshkent "Akademnashr". 2013.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Qadimgi turklar” L.N.Gumilyev, Toshkent.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ”Fan” nashriyoti. 2007.
2. “Turk xoqonligi” Nasimxon Rahmon, Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” Karim Shoniyozov, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent 2001.
4. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Baxodir Eshov. “Yangi asr avlodi”, Toshkent. 2012.
5. Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari.Toshkent “Akademnashr”. 2013.